

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 6-сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жамалов

ТАХРИРХАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц М.Тухтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тураев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д. проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуков, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова, фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н. доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррирлар: *Н.Юсунов, Г.Акмалжонова*

Тахририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.05.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (Баённома № 6). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



65	Ona tili darslarida o`quv lug`atlaridan foydalanish samaradorligi Tursunova O.F	325
66	Aforizmlar lingvistik tadqiqot obyekt sifatida Akramov I.I	330
67	Насимий ва фуқрат ижодида табиат тасвири Амонова З. Қ	335
68	Бахшининг бадий маҳорати Тилавов А	339
69	Инглиз ва ўзбек тилларида эвфемизмларнинг ўрганилиши ва лисоний хусусиятлари Рузиева Н.З	342
70	Мумтоз жанрда макон ва вақт категорияси (Алишер Навоий шеърлари мисолида) Йўлчиев Қ.В	347
71	Использование лингвистической терминологии при изучении сегментной фоностилистики имени существительного русского, Узбекского и Английского языков Гафуров Б.З	353
72	Biznes turizm terminlarining qiyosiy lingvo-semantik tahlili Gavharoy Isroiljon qizi	357
73	Абдулла Ориповнинг поэтик сўздан фойдаланиш маҳорати Хамдамов А.Н	365
74	Синтактик фигуралар таснифи Абдулаттоев М.Т	371
75	Sayyid Qosimiy asarlarida badiiy san`atlar Normurodov O.B	377
76	Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari Saidova N. A	380
77	Специфика в изображении образа «кавказского пленника» в русской литературе Юлдашева О	386
78	Сўз” ва “Термин” концептларининг лингвистик таърифлари ҳамда уларнинг ўзаро муносабатлари Хамдамов Р.М	390
79	Ҳ.Худойбердиеванинг сўзларни кўчма маънода қўллаш маҳорати Юсупова Д.Ю	395
80	Intonatsiya va pauzaning uslubiy xususiyatlari Yadgarova Z.T	403



INTONATSIYA VA PAUZANING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Yadgarova Zebiniso Tolibovna

Buxoro Davlat Universiteti

Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Tel: 97 302-0023 e-mail: yadgarova0023@gmail.com

Аннотация. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida fonetika va stilistika fanlari kesishuvida fonostilistika yangi yo'nalish sifatida paydo bo'ldi. Fonostilistikada nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari, shuningdek, segment vositalar hamda supersegment fonetik vositalar: intonatsiya, pauza va urg'uning uslubiy xususiyatlari o'rganiladi.

Intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolari va emosional-ekspressiv bo'yoqlarini ifoda qilish uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni, ovozning baland-pastligini ifodalovchi supersegment elementidir. Ushbu maqolada biz intonatsiya va uning komponenti pauzaning uslubiy jihatlari haqida fikr yuritamiz.

Tayanch so'zlar: fonostilistika, segment, supersegment, intonatsiya, pauza, urg'u, ritmik-melodik, nutq tempi, nutq tembri, nutq intensivligi, logik urg'u, emfatik urg'u, emosional-ekspressivlik.

ВЫРАЖЕНИЕ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ В ИНТОНАЦИИ

Ядгарова Зебинисо Толибовна

Бухарский государственный университет

Факультет

Иностранных языков

Тел: 97 302-00-23 e-mail: ilmiy@inbox.ru

Аннотация. Известно, что фоностилистика - новое направление, возникшее между науками фонетики и стилистикой в дальнейшем развитии языкознания. В фоностилистике изучаются стилистические особенности звуков речи, а также суперсегментарные фонетические приемы: интонация, пауза, ударение.

Интонация - это ритмико-мелодический аспект, служащий для выражения синтаксических значений и эмоционально-выразительных цветов речи, суперсегментный элемент, представляющий высоту голоса. В этой статье обсуждается степень, в которой интонация выражает коннотативное значение.

Ключевые слова: фоностилистика, segment, supersegment, интонация, пауза, акцент, ритмико-мелодический, темп речи, тембр речи, интенсивность речи, логический акцент, эмфатический акцент, эмоционально-выразительность

EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN INTONATION

Yadgarova Zebiniso Tolibovna

Bukhara state university

Faculty of Foreign languages, teacher of English linguistic department

Tel: 97 302-0023 e-mail: yadgarova0023@gmail.com

Annotation. It is known that phono-stylistics is a new direction that arose between the sciences of phonetics and stylistics in the further development of linguistics. In phono-stylistics, the stylistic



features of speech sounds are studied, as well as super-segmental phonetic means: intonation, pause, stress.

Intonation is a rhythmic-melodic aspect that serves to express syntactic meanings and emotionally expressive colors of speech, a super-segmental element representing the pitch of the voice. This article discusses the degree to which intonation expresses connotative meaning.

Keywords: *phonostylistics, segment, supersegment, intonation, pause, accent, rhythmic-melodic, temp of speech, timbre of speech, intensity of speech, logical accent, emphatic accent, emotional-expressiveness.*

Kirish: Tavsifiy fonetikada nutq tovushlari, ularning hosil bo'lish turlari bo'g'in, intonatsiya, pauza, urg'u kabi fonetik hodisalar va ularga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Nutqiy aloqa jarayonida qayd qilingan hodisalar yaxlit bir sistemaga birlashib, nutqiy aktini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham bunday hodisalar tahlili va tadqiqida ularni alohida-alohida o'rganish bilan birga, biri ikkinchisini taqazo etuvchi hodisalar, boshqacha aytganda, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan birliklar ekanligini nazarda tutish kerak.[1,24-28]

Intonatsiya supersegment fonetik vositalardan biri bo'lib, unga "Nutqning sintaktik ma'nolari va ekspressiv-emosional bo'yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni, ovozning baland pastligi, ohangi" deb ta'rif berilgan. [5,45]

Tilshunoslikda intonatsiyaning ikkinchi nomi intoema, u bilan shug'ullanuvchi sohaning nomi esa intologiya ekanligi ham qayd etilgan. [2,23]

Asosiy qism: Yevropa va rus tilshunosligida intonatsiya masalalari Antonova D. N., Artyomov Z.A., Barishnikova K., Brizgunova Y.A., Zlatoustova L.V., Kanter L.A., Machkova R.A., Muxanov I.A., Peshkovskiy M., Svetazarova N.D., Torsuyev G.P., Trubetskoy V. Tseplitis L. K, Cheremisina N. V. kabi tilshunoslarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida esa intonatsiya haqidagi mulohazalarni G'ulomov A., Abduazizov A., Abdullayev A., Yuldoshev B., Yo'ldosheva X., Karimov S., Mamatov J., Maxmudov A., Qilichev E., Yaxshiyev G., O'rinboyev B., Qo'ng'urov R., Haydarov A., Hojialiyev I., Mirtojdiyev M., Jamolxonov H. kabi tilshunoslar asarlarida uchratish mumkin.

Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning fikricha, intonatsiya gapning mantiq urg'usi, emfatik urg'u hamda pauza kabi omillarning hech biri o'zicha mustaqil vazifa bajara olmasligi ularning yig'indisi bir butun holda nutqning talaffuz qilingan qismi intonatsiyasi bo'lishligidir.

Intonatsiya bahsida gap tezligi, gap ohangi, gapdagi pauzalar haqida mulohaza yuritish lozim bo'ladi. Gap tezligi uning talaffuz jarayonida gap tarkibidagi tovushlarning sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Gapning har bir bo'lagi tezligi uning turli kommunikativ turlarida turlicha bo'ladi. Darak gaplar boshida berilgan ega umumiy gap tempiga ko'ra sekinroq boshlanadi.

Masalan: The exams are over at last.

So'roq gaplardagi bo'laklar tezligi darak gap tezligiga nisbatan biroz ortiq bo'ladi. Undov gaplar hayajonli belgiga ega bo'lganligi uchun baland tovush bilan talaffuz etiladi.

Do you know when the festival end?

It is wonderful! What a very nice house!

It's rather difficult, isn't it?

Intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ilmiy uslubdan tashqari qolgan barcha nutq uslublarida intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi kuchlidir. Og'zaki



nutqda intonatsiya, yozma nutqda tinish belgilari vositasida amalga oshiriladi. Intonatsiya gapda turli xil vazifalarni bajaradi.

Jumladan, u gap tipini, komponentlari orasidagi bog'lanishni, modalligini, emosional bo'yog'ini hamda gapda ifodalangan sanash, qarama-qarshi qo'yish, chog'ishtirish kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Nutqiy aloqa jarayonida intonatsiya asosan ikki vazifani bajaradi:

1. Nutq oqimining ma'no bo'laklariga ajratish va shu asosda yangi mazmun ifodalash. Bunda nutqiy pauza ham muhim rol o'ynaydi, ya'ni undov intonatsiyasi bilan aytilgan har qanday gap emosional gapga aylanadi.

Masalan: O'lim, yo'q shafqat!

O'lim yo'q, shafqat!

Come and look out here. What a magnificent view!

2. Nutqda emosional ottenkani ifodalaydi, bu ottenkalar o'ziga xos uslubiy ma'no kasb etadi.

"Ilmiy manbalarda – deb yozadi tilshunos olim S. Karimov, takt intonatsiyasi degan tushuncha mavjud. Matn tarkibidagi gaplar muayyan taktlarga bo'linar ekan, gapning ushbu qismlari alohida intonatsiya bilan talaffuz etilishi zarur bo'ladi, takt poetik matnlarning o'qilishidagi maromlilik desak, deb ushbu to'rtlikni keltiradi:

Daryolardan / talab qilma suv,

Daraxtlardan / so'rama soya.

Unut bo'lgan / bundayin tuyg'u,

Bekor ketgan / bu kabi g'oya. (A. Oripov)

Emotsional – ekspressivlikni ifodalashda intonatsiya alohida xarakterga ega, u har qanday gapning asosiy va xarakterli belgisidir. Emotsionallik gap tezligiga qarab ham belgilanadi. Shu sababdan darak gapga nisbatan so'roq gaplar ohangi davomli talaffuz etiladi.

Masalan: Why should it worry you?

What's the good of doing that?

How about phoning them?

Ajratilgan gap bo'laklari, undalma, kirish so'zlar og'zaki nutqda ohang bilan ajratiladi, yozma nutqda esa tegishli tinish belgilari bilan ajratib yoziladi.

Masalan: **Really!** Well you must get him.

Ushbu misoldagi **Really** kirish so'zi yozuvda undov belgisi bilan ajratilgan bo'lsa, og'zaki nutqda intonatsiya bilan talaffuz qilinadi.

Perhaps, it will rain!

Misoldagi **Perhaps** kirish so'zi yozuvda vergul bilan ajratilgan, og'zaki nutqda esa intonatsiya bilan talaffuz qilinadi.

Nutqiy aloqada intonatsiyning ikki xususiyati ham ro'yobga chiqadi, ya'ni intonatsiya muloqot o'rnatish va tinglovchiga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Intonatsiya nutqiy jarayonda, tinglovchiga ta'sir etish vositasi sifatidagi xususiyatini namoyon qilar ekan, bunda eshivilishi jihatdan tovushning balandligi farqlanadi. Uslubiy jihatdan esa intonatsiya ta'sir etish vazifasidan tashqari ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi.

Jumladan, intonatsiya o'zgarishi so'zlovchining ruhiy holati haqida ham ma'lumot beradi. Intonatsiyaning emotsionallik jihati asosan uslubiy ma'no ifodalaydi. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishda muhim fonoestilistik vosita bo'lib



xizmat qiladi. Uslubiy ma'no ifodalashi, unga albatta konnotativ(qo'shimcha) ma'no ifodalashi tabiydir. Bunday konnotativ ma'nolar e'tiborsizlik, sovuqqonlik, befarqlik, qat'iyatlik, do'q-po'pisa qilish, yalinish, iltimos kabilardir. So'roq gaplarda esa past-pasayuvchi (low-low) ohang asosan jiddiylilik, mas'uliyatlilik, javobgarlik, vaziyatni to'g'ri baholash kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi.

A) Holatni ifodalashda: Pete plays football very well. (Pet futbolni juda yaxshi o'ynaydi.)

Ushbu gap talaffuz jarayonida ovoz pastga tushadi hamda qoniqish, zavqlanish, xursandlik kabi konnotativ ma'nolar ifodalanadi.

B) Buyruqli ifodalashda: Go out! (Tashqariga chiq!)

Buyruq ohangida talaffuz qilingan ushbu gapda buyruq, do'q urish, qat'iyatlilik kabi "qo'shimcha" ma'nolar yuzaga chiqadi.

C) Umumiy so'roq gaplarda: Do you mind my opening the window? (Derazani ochishga qarshi emasmisiz?)

Ushbu gapda so'roq mazmuni bilan bir qatorda, "iltimos", "yalinish", "iltifot qilish" kabi "qo'shimcha" ma'nolar ifodalanligini ko'rish mumkin.

D) His-hayajon gaplar: What a fine day! (Qanday ajoyib kun!)

Ushbu gapda diqqatni tortish, xursandchilik, zavqlanish, taajjub kabi konnotativ ma'nolar ifodalangan.

Yuqoridagi gaplarning tahlili shuni ko'rsatadiki, intonatsiyaning o'zgarishi bilan so'zlovchining turli xil hissiyotlari ifodalanadi. Ya'ni, jumlarlar bir-biridan ajratiladi va so'zlovchi o'zi aytgan fikriga bo'lgan pragmatik munosabatini ko'rsatadi.

Intonatsiya nafaqat so'zlashuv, balki badiiy nutq uslublarida, hamda poeziyada ham muhim rol o'ynaydi. She'r turoqlarining talaffuzida intonatsiyaning ahamiyati katta bo'lib, she'riy asarlar qofiyaga asoslangan bo'lib, intonatsiyasiz o'qilgan she'r mazmunsiz va to'mtoq bo'ladi. Nazmiy asarlarning ta'sirlanchanligini oshirishda shoirlar takror stilistik figuradan unumli foydalanadilar, takrorga asoslangan she'rmi o'qish yoki aytish muhim fonostilistik vazifani bajaradi.

Quyidagi she'riy misralar so'z takroriga asoslangan:

It was many and many years ago,

In a kingdom by the sea.

That a maiden they lived who is you may know.

By the name of Annable Lee.

And this maiden she lived with no other thought

Then to live and be loved by me. (E.A.Poe)

Quyidagi she'rda esa bir xil tovushlarning takrori aks etgan.

Sim-sim yomg'ir sirli soy misol.

Pichirlaydi ona tabiat.

Saxiyligi ortganday qat-qat,

G'o'yo deydi ol, ol, olib qol. (Mirtemir "Yoz yomg'iri")

Yuqorida keltirilgan har ikkala tildagi she'riy parchalarni intonatsiya bilan o'qish kitobxon xotirasida uzoq saqlanadi hamda uni zavqlantiradi.

Xulosa: Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqni intonatsiyasiz shakllantirib bo'lmaydi. Qaysi bir fonetik hodisa stilistik vazifani bajarayotgan bo'lmasin uni intonatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishda



muhim fonostilistik vosita hisoblanadi. Intonatsiya orqali konnotativ ma'no ifodalanishi boshqa til birliklariga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Intonatsiya va uning komponenti pauzaning birvaqtda qo'llanilishi uslubiy ma'no ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. A. Fonostilistik vositalarning o'rganilishiga doir// O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1985. N2 – B. 24.28.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – T.: "Fan" 2009. – B.170.
3. Karimov. S. A. O'zbek tilining fonetik stilistikasi. Samarqand. 2016. – B.23.
4. Haydarov. A. A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDu ilmiy axboroti. 2006. N1. – B. 69-72.
5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarining izohi lug'ati. – T. 1985. – B.45.
6. <https://hozir.org/mavzu-ozbek-tilida-soroq-va-undov-gaplar-reja-i-kirish-gap-haq.html>